


BIZNES KAYFIYATI SHARHI (2025-YIL IV CHORAK)

Qisqa tavsif

2025-YIL IV CHORAGI BIZNES KAYFIYATI TAVSIFI

2025-yilning **IV choragida** O'zbekiston bo'yicha biznes kayfiyati ijobiy dinamika bilan davom etdi. Hududlarda o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlarning iqtisodiy faollik, biznes muhiti va bandlik bo'yicha baholari ijobiy va barqaror shakllanayotganini ko'rsatdi. So'rovda ishtirok etgan tadbirkorlarning **60 foizi** joriy biznes shart-sharoitlarini o'tgan chorakka nisbatan yaxshilangan deb baholadi. Bu ko'rsatkichning so'nggi ikki yil davomida o'rtacha **50 foizdan yuqori** darajada shakllanayotgani tadbirkorlar ishonchi barqaror saqlanayotganini anglatadi.



Biznes muhitining yaxshilanish darajasi

66%

64%

62%

60%

54%

51%

Tadbirkorlar biznes muhitidagi eng muhim ijobiy o'zgarishlar sifatida **bank xizmatlari sifati, raqobat muhiti, litsenziya olish jarayonlari** hamda **ma'muriy aralashuvlar** bo'yicha yaxshilanishlarni qayd etishdi. Shu bilan birga, **monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi, energetika ta'minoti** va **bojxona tariflari** bo'yicha holat avvalgi chorak darajasida saqlanib qoldi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanishi **IV chorakning** asosiy xususiyatlaridan biri bo'ldi. **Energiya iste'moli, yuk tashish hajmi hamda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab** oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi oldingi chorakka nisbatan sezilarli ko'paydi. Ayniqsa, energiya iste'moli ko'payganini bildirganlar ulushi **53 foizni** tashkil etdi. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish sezilarli oshgan bo'lsa, boshqa hududlarda energiya ta'minotidagi uzilishlar, yonilg'i narxlarining qimmatlashishi, soliq tizimidagi murakkabliklar, aylanma mablag'larning kamligi va ijara xarajatlarining yuqoriligi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq va samarali foydalanishni cheklagan.

Mehnat bozorida faollik barqaror shakllanib, aksariyat korxonalarining qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi oshgani qayd etildi. Shu bilan birga, **Andijon, Namangan, Samarqand va Navoiy** viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning ortishi kutilmoqda. **Ishlab chiqarish, ta'lim, qurilish va tashish xizmatlari** sohalarida ushbu ko'rsatkich boshqa yo'nalishlarga nisbatan yuqoriroq shakllanishi mumkin.

Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha qarz majburiyatlari o'zgarmaganini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan ko'payib, **47 foizni** tashkil etdi. Kreditlarga bo'lgan talab bo'yicha kutilmalarda esa biroz oshuvchi tendensiyalar saqlanib qoldi. Kredit resurslariga eng yuqori ehtiyoj **qurilish, ishlab chiqarish, moliya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, turizm va ta'lim** yo'nalishlarida qayd etildi.


Umuman olganda, tadbirkorlarning **68 foizi** kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoitlar yaxshilanishiga ishonch bildirgan. Bu ko'rsatkich tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ishonchning yuqori darajada saqlanayotganidan darak beradi.

HUDUDLAR KESIMIDA XULOSALAR


TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida biznes muhitidagi ijobiy dinamika saqlanib qolgan bo'lsa-da, tadbirkorlarning **54 foizi** biznes sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Bu ko'rsatkich **III chorakka nisbatan 6 foiz bandga** pasaydi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti, litsenziyalash va ma'muriy aralashuvlar bo'yicha ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qayd etildi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Iqtisodiy faollikda buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlarining oshishi saqlanib qolgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar oldingi chorakka nisbatan biroz pastroq shakllandi. Shu bilan birga, qurilish, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori bo'ldi. Kelgusi chorakda buyurtmalar hajmi, ishlab chiqarish va kredit resurslariga talabning ortishi kutilmoqda.


BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARI

Mazkur hududlarda tadbirkorlik muhiti ijobiy barqaror bo'lib, so'rov ishtirokchilarining **64 foizi** biznes muhitining yaxshilanganini bildirdi. Maishiy xizmat, moliya, savdo, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish sohalarida o'sish sezildi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlarining kengaygani, litsenziyalash jarayonlari, raqobat muhiti hamda ma'muriy aralashuvlar bo'yicha ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qayd etildi. Shuningdek, yo'l infratuzilmasida ham ijobiy o'zgarishlar

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Iqtisodiy faollikda ayrim ko'rsatkichlar barqaror saqlangan bo'lsa-da, buyurtmalar hajmi ko'payganini bildirganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan biroz kamaydi va kredit to'lovlari oshganini qayd etganlar ulushi ko'paydi. Shu bilan birga, qurilish, hunarmandchilik, turizm, savdo va ishlab chiqarish sohalarida buyurtmalar hajmining oshishi, mehnat bozorida esa qurilish, fan-ta'lim va moliya yo'nalishlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning ortishi kutilmoqda.


QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI

Mazkur hududlarda tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiya barqaror saqlanib, respondentlarning **51 foizi** biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini bildirdi. Tibbiyot, ishlab chiqarish va ta'lim sohalarida ijobiy baholar sezilarli ortgan bo'lsa, turizm, moliya, hunarmandchilik va tashish xizmatlari sohalarida bu ko'rsatkich biroz qisqardi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti hamda ma'muriy aralashuvlarning qisqarishi va litsenziyalash jarayonlarining soddalashuvi

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Iqtisodiy faollik bo'yicha yonilg'i va energiya iste'moli, buyurtmalar hajmi, ishlab chiqarish va qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganini qayd etganlar ulushi oldingi chorakka nisbatan kamaygan bo'lsa-da, ijobiy baholar saqlanib qoldi. Biroq energiya ta'minoti, ichki talab, aylanma mablag'lar yetishmovchiligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar hamda yonilg'i narxlarining oshishi ayrim korxonalarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Kelgusi chorakda buyurtmalar hajmi bo'yicha ijobiy kutilmalar saqlanayotgan bo'lsa-da, mehnat bozorida faollik biroz qisqarishi mumkin.


JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARI

Bu hududlarda biznes kayfiyati barqaror ijobiy shakllanib, respondentlarning **60 foizi** tadbirkorlik qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaxshilanganini ma'lum qildi. Tibbiyot, savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, yo'l-transport infratuzilmasi va raqobat muhiti yaxshilangani asosiy omillar bo'ldi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Biroq ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish pasaydi, bu esa energiya uzilishlari, ichki talabning yetarli darajada emasligi, soliq tizimidagi murakkabliklar va yonilg'i narxlarining qimmatlashishi bilan bog'liq bo'ldi. Kelgusi chorakda ishlab chiqarish hajmining mo'tadil oshishi kutilsa-da, energiya iste'moli va mehnat bozori bo'yicha kutilmalarda biroz pasayish mavjud.


JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARI

Bu hududlarda biznes kayfiyati barqaror ijobiy shakllanib, respondentlarning **60 foizi** tadbirkorlik qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaxshilanganini ma'lum qildi. Ta'lim, aloqa, hunarmandchilik va savdo tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari va yo'l infratuzilmasi yaxshilangani asosiy omillar bo'ldi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




O'z navbatida, iqtisodiy faollik buyurtmalar, ishlab chiqarish va qo'shimcha ishchi kuchiga talab bo'yicha ijobiy shakllandi. Shunga qaramay, energiya ta'minotidagi uzilishlar, aylanma mablag'larning yetarli emasligi, ijara to'lovlarining qimmatlashishi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar va yonilg'i narxlarining oshishi ayrim korxonalarning to'liq quvvatda ishlashiga xalaqit berdi. Kelgusi chorakda buyurtmalar hajmi va qo'shimcha ishchi kuchiga talabning o'sishi kutilmoqda.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA XORAZM VILOYATI

Mazkur hududlarda biznes kayfiyati o'tgan chorakka nisbatan sezilarli yaxshilanib, respondentlarning **62 foizi** biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Xususan, tashish xizmatlari, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, moliya va savdo sohalarida ijobiy baholar sezilarli ortdi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti va litsenziyalash jarayonlari asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda



Iqtisodiy faollikda energiya iste'moli, ishlab chiqarish, buyurtmalar, yuk tashish hajmi va qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy baholar o'tgan chorakka nisbatan sezilarli ko'paydi. Shu bilan birga, energiya ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi murakkabliklar, yonilg'i narxlarining oshishi, ijara xarajatlari va aylanma mablag'lar yetishmovchiligi ayrim korxonalarning to'liq quvvatda ishlashiga to'sqinlik qildi. Kelgusi chorakda ishlab chiqarish, buyurtmalar va yuk tashish hajmlarining oshishi bo'yicha ijobiy kutilmalar mavjud.

To'liq sharh bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin: